

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BYUDJET DAROMADLARIDA YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING ROLI VA AHAMIYATI



**Jumaev Shuxrat**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)  
E-Mail: [sh.jumaev@tsue.uz](mailto:sh.jumaev@tsue.uz)

**Annotatsiya:** O'zbekiston soliq tizimida yirik soliq to'lovchilarning faoliyatini soliq tizimi orqali tartiblash va muvofiqlashtirish muammolarini o'rganish jarayonida dastlab ularning fiskal ahamiyati, aniqroq qilib aytganda mamlakat milliy iqtisodiyoti, qolaversa, byudjet tizimidagi rolga baho berishimiz lozim bo'ladi. Bunda biz bir qator yondashuvlar asosida tahlillar amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Ushbu maqolaning dolzarbligi Respublikamiz soliq tushumlarining yarmidan ko'pini tashkil qilayotgan Yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish orqali ularning soliq yig'uvchanligini yanada oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. Soliq ma'murchiligi soliqlarning yig'uvchanligini oshirish bilan bir qatorda soliq majburiyatlarini amalga oshirishning qulayligini amalga oshirishdan iborat bo'lib qoladi.

**Kalit so'zlar:** soliq, soliq siyosati, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, yirik soliq to'lovchilar, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

**Kirish:** O'zbekiston soliq tizimida yirik soliq to'lovchilarning fiskal ahamiyati juda yuqori hisoblanishi, yirik soliq to'lovchilar tomonidan byudjetga to'langan mablag'larning umumiy byudjetda salmoqli o'ringa ega bo'lganligi sabablar yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchiligidagi muammolarni yechish orqali ularni yanada rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega. Yirik soliq to'lovchilarni alohida rejimda nazorat tizimining yaratilishi byudjet-soliq qonunchiligiga qat'iy rioya etilishiga va soliq ma'muriyatchiligi samaradorligining oshishiga olib keladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchiligini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar ko'pgina mamlakatlarda keng miqyosdagi dolzarb tadqiqot yo'nalishini sifatida o'rganilib kelinmoqda.

Jumladan, avstraliyalik olimlar Z.Akhand va P.Grob [1,2] tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik soliq to'lovchilarni boshqaruvini maxsus bo'linmalar tomonidan nazorat qilish tizimini joriy etishda erishilgan yutuqlar va kamchiliklar tadqiq qilingan. Shuningdek, Z.Ahmad [3] tadqiqotida yirik soliq to'lovchilar soliq ma'muriyatchiligiga oid Pokiston tajribasi o'rganilgan.

Rossiyada yirik soliq to'lovchilarni boshqarish va ushbu tizimni yaratish amalga oshirilgan bo'lib, yirik soliq to'lovchilarni boshqarish maqsadida 1998 yildan soliq organi

bosh apparatida maxsus bo'linma tashkil qilingan. Rossiyada yirik soliq to'lovchilar bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan A.Karataev o'z tadqiqotlarida asosiy masala sifatida yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligi tushunchasi va vazifalari, ularning soliq salohiyatini baholash orqali davlat byudjetidagi o'rni, soliq organlarining yirik soliq to'lovchilar bilan samarali soliq munosabatlarini shakllantirishni ta'minlaydigan eng samarali soliq ma'muriyatchiligi vositalarini qo'llash masalalari, yirik soliq to'lovchining soliq potensialini strategik tahlil qilish masalalariga e'tibor qaratgan.

Mazkur amaliyot bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan S.Pepelyaev [4,5] tadqiqotlarida ushbu jarayonlarning qonuniyligi va tarmoq boshqaruvining samaradorligi muammolariga alohida etibor qaratib, soliq organlari faoliyatidagi huquqiy va funksional kamchiliklarga baho berilgan.

Shu bilan birga, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligi oid tadqiqotlar kengayib, rus tadqiqotchilari A.Fedorov, G.Aytxojina, M.Belugina, L.Strukova, T.Kamalnevlar yirik soliq to'lovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchilar E.F.Gadoev, Sh.A.Toshmatov, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, A.S.Jo'raev, N.X.Jumaev, N.R.Qo'zieva, B. E.Toshmurodova, S.K.Xudoykulov, U.X.Normurzaev va boshqalarning ilmiy ishlarida Yirik soliq to'lovchilarga oid soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha nazariy va metodologik asoslarining ayrim jihatlari o'rganilgan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini takomillashtirish va ular tahlilining kompleks tarzda o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Ushbu maqolada mantiqiy usul va modellashtirish usullari, tahlil va sintez, normativ yondashuv, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar:** Yirik soliq to'lovchi toifasiga kiritishdan boshlanadigan, ularni hisobga olish, ular doirasida soliq ob'ektlarini ro'yxatga olish, ularga nisbatan soliq imtiyozlarini berish hamda soliq qarzlarini undirish borasidagi soliq xizmati organlarining yondashuvini o'z ichiga oladigan soliq siyosati ma'lum bir shakllanish jarayoniga ega. Yirik soliq to'lovchilar toifasiga soliq to'lovchilarni kiritish asosida ularni soliqqa tortishning o'ziga xos yondashuvlar asosidagi soliq ma'murchiligini qo'llash ko'p bo'lmagan bo'lsada, ammo bu borada o'ziga xos tajribalarni shakllantirish evolyusion jarayon davom etmoqda. Bu holatni ilmiy-uslubiy jihatdan nazariy tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'zbekiston soliq tizimida yirik soliq to'lovchilarga oid soliq ma'murchiligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-sonli Farmonida alohida belgilab berildi.

Ushbu farmonda Yangi O'zbekiston soliq tizimining muhim muammolari bilan birgalikda milliy soliq tizimida soliq ma'murchiligini tubdan takomillashtirishning muhim yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi. Unga ko'ra, "soliq ma'muriyatchiligi va nazoratini tashkil etish tartibi hamda metodologiyasini tubdan takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarning soliq yukini yanada kamaytirish, bir xil soliq solish ob'ektlariga ega bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni birlashtirish,

solliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash uchun qo'shimcha mezon joriy etishni va ushbu miqdor oshgan korxonaga, kichik tadbirkorlik sub'ekti maqomini saqlab qolgan holda, qo'shimcha solliq majburiyatlarini belgilash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni "yirik solliq to'lovchilar" toifasiga kiritish mezonlarini belgilash<sup>1</sup> kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi hamda yirik solliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi solliq to'lovchilarga nisbatan alohida solliq ma'murchiligi va uning huquqiy asoslari shakllantirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat solliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son qarorida ham mamlakatimiz solliq tizimida yirik solliq to'lovchilarga oid davlat solliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan solliq ma'murchiligi bilan bog'liq ustuvor vazifalar ham belgilab berilgan. Yirik solliq to'lovchilarga oid solliq ma'murchiligini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi 320-son "Davlat solliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Yirik solliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat solliq inspeksiyasi to'g'risida Nizom" alohida ahamiyat kasb etadi.

Yirik solliq to'lovchilarning byudjet-solliq tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, yirik solliq to'lovchilarga toifasiga kiruvchi solliq to'lovchilarning mamlakat milliy iqtisodiyotidagi hamda byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rni juda kattadir. Bu solliq to'lovchilarni ularning yalpi ichki mahsulot va davlat byudjetidagi roli nuqtai nazaridan baholash ilmiy-uslubiy jihatdan o'rinli xisoblansada, ammo, ularga nisbatan davlatning byudjet-solliq siyosatidagi yondashuvlar ham ularning manfaatlari uchun o'ta muhim sanaladi.

Oxirgi 6 yilda O'zbekiston Respublikasi solliq tushumlarida Yirik solliq to'lovchilar tomonidan to'langan solliqlarni tahlil qilganimizda quyidagi holatni ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

### 1-jadval.

#### O'zbekiston Respublikasi solliq tushumlarini shakllantirishda Yirik solliq to'lovchilarning ulushi tendensiyasining solliq turlari kesimida tahlili<sup>2</sup> (trln so'm)

Yillar	Ko'rsatkichlar	J A M I	Qo'shilgan qiymat solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Aksiz solig'i	Er-qaridan foydalanilganlik uchun solliq	Yuridik shaxslar mulk solig'i	Yuridik shaxslar yer solig'i	Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun solliq	Davlat ulushi	Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha tushumlar	Boshqalar
2019	<b>Jami solliq tushumi</b>	<b>83,3</b>	<b>23,7</b>	<b>11,6</b>	<b>10,0</b>	<b>13,3</b>	<b>14,7</b>	<b>1,6</b>	<b>1,1</b>	<b>0,3</b>	<b>0,0</b>	<b>1,9</b>	<b>5,1</b>
	Shundan, YSTlar tushumi	45,9	10,9	7,9	4,9	2,6	14,5	1,0	0,3	0,3	0,0	1,9	1,6
	Ulushi (foizda)	55,0	45,9	67,7	49,1	19,2	99,0	65,0	28,7	83,9	0,0	100,0	31,2
2020	<b>Jami solliq tushumi</b>	<b>103,6</b>	<b>23,2</b>	<b>10,8</b>	<b>28,7</b>	<b>15,1</b>	<b>16,6</b>	<b>1,2</b>	<b>1,2</b>	<b>0,5</b>	<b>1,2</b>	<b>0,4</b>	<b>4,7</b>
	Shundan, YSTlar tushumi	67,7	10,6	9,1	25,3	3,5	15,9	0,8	0,4	0,3	1,2	0,4	0,4
	Ulushi (foizda)	65,4	45,6	83,9	88,1	23,4	95,8	63,9	30,7	61,0	100,0	100,0	7,8
2021	<b>Jami solliq tushumi</b>	<b>127,9</b>	<b>25,6</b>	<b>12,8</b>	<b>38,4</b>	<b>18,9</b>	<b>15,8</b>	<b>1,6</b>	<b>2,7</b>	<b>0,7</b>	<b>1,3</b>	<b>0,3</b>	<b>9,9</b>

<sup>1</sup> www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi "Solliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-sonli Farmoni

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва Молия вазирлиги ҳамда Солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

	Shundan, YSTlar tushumi	81,8	13,2	10,4	34,0	4,8	14,8	1,0	1,0	0,3	1,3	0,3	0,7
	Ulushi (foizda)	64,0	51,7	81,4	88,5	25,6	93,6	61,3	36,5	47,9	100,0	100,0	6,6
2022	<b>Jami soliq tushumi</b>	<b>148,5</b>	<b>32,8</b>	<b>13,1</b>	<b>37,6</b>	<b>23,9</b>	<b>13,9</b>	<b>3,0</b>	<b>3,4</b>	<b>0,7</b>	<b>4,6</b>	<b>3,6</b>	<b>11,8</b>
	Shundan, YSTlar tushumi	88,3	16,1	10,1	31,3	6,1	13,6	1,6	1,3	0,4	3,1	4,6	0,1
	Ulushi (foizda)	59,5	49,0	77,5	83,1	25,7	98,2	53,0	36,9	53,1	66,2	129,5	0,5
2023	<b>Jami soliq tushumi</b>	<b>165,9</b>	<b>34,0</b>	<b>15,1</b>	<b>40,8</b>	<b>29,9</b>	<b>15,3</b>	<b>3,6</b>	<b>4,0</b>	<b>0,8</b>	<b>6,0</b>	<b>2,4</b>	<b>13,9</b>
	Shundan, YSTlar tushumi	97,7	17,6	11,9	33,4	8,0	15,1	1,9	1,4	0,4	5,6	2,4	0,1
	Ulushi (foizda)	58,9	51,8	78,4	82,0	26,6	98,4	52,2	34,9	50,3	93,4	100,0	0,4
2024 (prog noz)	<b>Jami soliq tushumi</b>	<b>197,6</b>	<b>42,9</b>	<b>22,0</b>	<b>44,3</b>	<b>38,5</b>	<b>16,7</b>	<b>4,3</b>	<b>4,3</b>	<b>1,3</b>	<b>6,0</b>	<b>1,5</b>	<b>15,9</b>
	Shundan, YSTlar tushumi	126,3	28,7	17,7	38,4	12,7	16,6	2,5	1,6	0,6	6,0	1,5	0,0
	Ulushi (foizda)	63,9	66,9	80,3	86,7	33,0	99,6	57,1	38,0	46,4	100,0	100,0	0,2


1-jadval ma'lumotlari asosida tahlil qiladigan bo'lsak, yirik soliq to'lovchilarning soliq turlari kesimida O'zbekiston davlat byudjeti soliq tushumlarida ulushi 2019-2020 yillarda o'sib borgan. Ushbu ko'rsatkichning 2021-2023 yillarda kamayishi esa tog'-kon metallurgiya kombinatlari uchun belgilangan foyda solig'i va yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq stavkalarining pasaytirilganligi tufayli yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

2024 yil prognozida esa Yirik soliq to'lovchilar tushumi 126,3 trln.so'mni tashkil qilishi va jami soliq tushumlarida (197,6 trln.so'm) 63,9 foizni tashkil qilishi belgilangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlarni tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yirik soliq to'lovchilarning ushbu soliq turi bo'yicha 2019 yildagi ulushi 55 foizni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda ushbu ulushi ko'payib borganligini ko'rishimiz mumkin.

### 1-chizma

#### O'zbekiston Respublikasida jami soliq tushumlari va Yirik soliq to'lovchilar tushumlarining o'zgarish dinamikasi<sup>3</sup> (trln.so'm)



Ushbu chizmadan xam ko'rishimiz mumkinki, yirik soliq to'lovchilarning soliq tushumlari umumiy soliq tushumlaridagi ulushi mos ravishda o'sib bormoqda. Shu sababli, yirik soliq to'lovchilarning soliq salohiyatini baholash chuqur tahlillar asosida aniqlanishi kerak.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-422-son qarorining 4 ilovasida foyda solig'i to'liqligicha O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilar ro'yxati keltirilgan bo'lib, ushbu ro'yxatda 80 ta korxonalar va 35 bank o'rin olgan.

Quyidagi jadval asosida ushbu yirik soliq to'lovchilar korxonalar va banklar tomonidan 2020-2024 yillar davomida to'langan soliq to'lovlarining umumiy yirik soliq to'lovchilardan tushgan tushumlarga nisbatan ulushini ko'rib chiqamiz.

## 2-jadval.

### Yirik soliq to'lovchilar tushumida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilarning ulushi tendensiyasi tahlili<sup>4</sup> (trln so'm)

Ko'rsatkichlar		Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024 (progn oz)
Umumiy yirik soliq to'lovchilar	Soni	836	1149	957	886	2187
	Soliq tushumi	67,7	81,8	88,3	97,7	126,3
Foyda solig'i to'liqligicha respublika byudjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilar	Soni	116	118	120	116	115
	Soliq tushumi	54,6	65,6	66,6	74	83,1
Foyda solig'i to'liqligicha respublika byudjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilarning jami yirik soliq to'lovchilarga nisbatan foizda	Soni	13,9	10,3	12,5	13,1	5,3
	Soliq tushumi	80,6	80,2	75,4	75,7	65,8

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, foyda solig'i O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilarning ulushi jami yirik soliq to'lovchilar tushumida salmoqli hissaga ega bo'lib kelmoqda. Ushbu korxonalar 2023 yilda jami yirik soliq to'lovchilar sonining 13,1 foizinigina tashkil qilgan holda soliq tushumlarining 75,7 foizini tashkil qilgan. 2024 yilda xam 65,8 foiz yirik soliq to'lovchilar soliq tushumlarining foyda solig'i O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilar to'laydigan soliq tashkil qilishi prognoz qilingan.

Bugungi kunda me'yoriy soliq qonunchiligida xam, boshqa me'yoriy hujjatlarda ham o'ta yirik soliq to'lovchi atamasi yoki ta'rifi mavjud emas. Biroq, yuqoridagi 2-jadval tahlillari asosida aytishimiz mumkinki, foyda solig'i O'zbekiston Respublikasining

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

respublika byudjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilarni o'ta yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: "O'ta yirik soliq to'lovchilar deganda, amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha soliq to'lash majburiyatlari milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, ularning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqib, Prezident qarori asosida rasmiy tasdiqlangan ro'yxat asosidagi soliq to'lovchilar tushuniladi".

**Xulosa va takliflar:** Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, soliq to'lovchilarning fiskal salohiyatini baholab borib, ularni alohida guruhlar doirasida tahlil qilishni va shunga mos soliq siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Bundan ko'rinadiki, soliq to'lovchilarni ko'lamiylik jihatdan soliqqa tortish turli yo'nalishdagi alohida soliq ma'murchiligini taqozo etadi.

Yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi takliflarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. O'zbekiston Respublikasining kelgusi yillar va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan Davlat byudjetini daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida byudjet daromadlari, shu jumladan soliq tushumlarini prognozlashda foyda solig'i O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilarga alohida e'tibor qaratish;

2. Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasida "O'ta yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchiligi" bo'linmasini tashkil qilgan holda, foyda solig'i O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan yirik soliq to'lovchilar faoliyatini chuqur tahlil qilish va ularni soliq tortish borasida aniq yo'nalishlarga asoslangan holda ish olib borish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahmed M.A. Pakistan: wither tax reforms– the case of large taxpayers' unit, Islamabad // Journal of Tax Reform. 2018. Vol. 4, No. 3. P. 202–222.

2. Grob P. Tax governance and justified trust [online] // Taxation in Australia. 2017. Vol. 52, No. 5. P. 261–265.

3. Akhand Z. Understanding the effects of coercive and persuasive tax compliance tools on large corporate taxpayers [online] // Journal of Australian Taxation. 2014. Vol. 16, No. 2. P. 206– 258.

4. Пепеляев С. Структура налоговой службы: время исправлять ситуацию // Экономика и жизнь. 2004. № 12.

5. Пепеляев С.Г. Актуальные проблемы законодательства и правоприменительной практики налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков // Правовые проблемы налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. М.: ВолтерсКлувер, 2006.

6. Каратаев, А.С. Концепция налогового крупнейших налогоплательщиков и методология его оценки. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктор экономических наук. Йошкар-Ола-2011.

7. Федоров, А.Н. Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат

диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Нижний Новгород 2010.

8. Айтхожина Г.С. Особенности планирования выездных налоговых проверок крупнейших налогоплательщиков // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. 2011. № 1. С. 190–192.

9. Белугина М.В. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков: проблемы, пути совершенствования // Инновационное развитие экономики. 2015. № 5 (29). С. 27–30.

10. Струкова Л.А. Проблемы налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков // Actualscience. 2016., №. 11. С. 269–271.

11. Камалнев, Т.Ш. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2009.

12. Жумаев Ш. Йирик солиқ тўловчиларга оид солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш масалалари: и. ф. д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати // Тошкент. – 2023. – Т. 2. – С. 2018-2022.

13. Жумаев, Ш. (2023). Йирик солиқ тўловчилар солиқ маъмурчилигини такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(1), 131–136.

14. Жумаев, Ш. . (2022). Йирик солиқ тўловчиларнинг солиқ тушумлари прогнозларини такомиллаштириш масалалари. *Economics and Innovative Technologies*, 10(6), 335–341. [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss6/a36](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss6/a36)

15. Жумаев Шухрат. Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилиги ва солиқ тизими стратегиясини такомиллаштириш масалалари // Экономика и социум.-2024.- №4(119) (30.04.2024)

16. Жумаев , Ш. (2024). Ўзбекистонда Республикасида солиқ тўловчиларга хизмат кўрсатиш тизимини янада такомиллаштиришга масалалари . Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 68–69.

17. Жумаев, Ш. (2024). Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2(4), 368–374. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp368-374>

18. Sh. Jumaev. (2024). On improving the methodology of tax administration of large taxpayers in the Republic of Uzbekistan. *Gospodarka i innowacje. Economy and Innovation*. Volume: 48 | 2024. 330-336.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

